



2-TOM, 5-SON

O'ZBEK MUMTOZ ADIBLARI MEROSIDA SURAT VA MA'NO
LINGVOPOETIK TUSHUNCHALAR SIFATIDA

Otajonova Farog'at G'afurjonovna

UrDU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasi o'qituvchisi
+998941187722 farogatotajonova69@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o'zbek mumtoz adabiyotidagi nazmiy matnlar lingvopoetik tahlili bo'yicha ilg'or olimlarning ilmiy tadqiqotlari tahlil qilinadi. Mumtoz nazmiy matnda surat va ma'no munosabati sof lingvistik masala ekanini Hofiz Xorazmiy she'riyati misolida ochishiga harakat qilinadi.

Abstract: The article analyzes the scientific research of advanced scientists on the linguopoetic analysis of poetic texts in Uzbek classical literature. An attempt is made to reveal that the relationship between image and meaning in classical poetic text is a purely linguistic issue using the example of Hafiz Khorezmi's poetry.

Annotatsiya: В статье анализируются научные исследования передовых ученых по лингвопоэтическому анализу поэтических текстов узбекской классической литературы. На примере поэзии Хафиза Хорезми делается попытка раскрыть, что соотношение образа и смысла в классическом поэтическом тексте является чисто лингвистическим вопросом.

Kalit so'zlar: H.Xorazmiy devoni, matn lingvopoetikasi, nazmiy matnlar, lingvopoetik tahlil, she'riy asar g'oyasi

Key words: H.Khorazmi's book, text linguopoetics, poetic texts, linguopoetic analysis, the idea of a poetic work

Ключевые слова: Книга Х. Хорезми, лингвопоэтика текста, поэтические тексты, лингвопоэтический анализ, идея поэтического произведения

O'zbek tilshunosligida lingvopoetika nisbatan yosh soha bo'lishiga qaramay, mumtoz filologiyamizda uning asosiy unsurlari va tadqiq metodlari mavjud edi.

Albatta, adabiyotshunoslikka oid har qanday ish yoki tilshunoslikka oid har qanday ishda lingvopoetikaga daxldor masalalar ko'rilgan, demoqchi emasmiz. M.Yo'ldoshev to'g'ri ta'kidlaganidek, "...dunyoni bilishning asosiy yo'li bo'lgan mantiqiy tafakkur bo'ladimi, olamni idrok etishning boshqa bir o'ziga xos usuli bo'lgan obrazli tafakkur bo'ladimi, baribir, til va tafakkur dialektikasi hamisha mavjuddir, ya'ni tilsiz tafakkurning, tafakkursiz esa tilning yashashi mumkin emas", shuningdek, "San'atlar orasida badiiy



2-TOM, 5-SON

adabiyot oliy san'at, u mutlaqo o'ziga xos xususiyatlar, qoida-qonuniyatlar bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham adabiyot haqida gap ketganda, uning materialini boshqa san'atlar materiali bilan tamoman tenglashtirishda hushyorlik talab etiladi”¹.

O'zbek tilshunosligida lingvopetika bo'yicha dastlabki yirik ko'lami ish muallifi M.Yo'ldoshev haqli ravishda R.Budagovning “Men ishonamanki, poetika filologik bilimlar sistemasida yaxlit fandir. U bilan badiiy so'z taqdirini, ham she'riy, ham nasriy til taqdirini o'zлari uchun qadrli deb bilgan filologlar shug'ullanishlari lozim” hamda B.Sarimsoqovning “... Tilshunosmi yoki adabiyotshunosmi, lingvopoetikada, badiiylik (obrazlilik) masalalarida birlashib ketishlari lozim, shundagina ular haqiqiy filologga aylanadilar. Badiiylik muammolari esa sof filologik muammolardir”² – so'zlarini ma'qullashi bejiz emas.

O'zbek mumtoz adabiyotidagi nazmiy matnlar lingvopoetik tahlilida A.Rustamovning “Navoiyning badiiy mahorati” asari yaxshi namuna bo'ladi. Asarda, garchi lingvopoetika atamasining o'zi uchramasa ham unda mumtoz nazmiy asar lingpoetikasining qator nazariy masalalariga e'tibor qaratilgan va ularning yechimi berib boriladi.

Jumladan, olim fikricha, “Shoirning badiiy mahoratini va ijodiy muvaffaqiyatini to'liq anglash uchun uning estetik prinsiplarini aniqlash kerak. Buni bilish uchun esa san'atkoring borliq, jumladan, inson haqidagi fikrlarining falsafiy asoslarini bilish zarur”³.

Haqiqatan, bu mulohazalar Hofiz Xorazmiy she'riyati lingvopoetik tadqiqi misolida ham ham o'z isbotini topadi. Masalan, shoir insonning tiriklikdan murodi masalasidek o'ta murakkab, lekin muhim muammo borasidagi fikrlarini quyidagi qit'ada bayon qiladi:

Komi jonni tilama, ey oqil,
Chun bu olamning ichra yo'qdur kom.
Kom agar bo'lsa erdi olamda,
Topg'ay erdi tan ichra jon orom.
Besaranjom ko'runur ishlar,
Chun ko'runmas jahon ishinda nizom.
Oqibat chun jahonda qolmasmiz,
Yaxshi uldurki, yaxshi qolsa nom. (31-q.)

¹ Юлдашев М. М. Бадиий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри дисс ... – Тошкент, 2009.
– Б. 19.

² Юлдашев М. М. Бадиий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри дисс ... – Тошкент, 2009.
– Б. 30.

³ Юлдашев М. М. Бадиий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри дисс ... – Тошкент, 2009.
– Б. 7.



2-TOM, 5-SON

“Yaxshi nom qolgani yaxshi” g‘oyasi har bir mutafakkir shoir tilida turli vositalar orqali ifodalanadi. Hofiz Xorazmiyda esa bu g‘oya ushbu qit’ada kabi leksik vositalar – omonimlar (kom – kom), antonimlar (besaranjom – nizom), shuning, takror kabi poetik amal (pryom)lar orqali ifoda topgan.

Olim shu bilan birga lingvopoetika uchun o‘ta muhim masala – surat va ma’no munosabatiga e’tibor qaratadi: “Tarbiyaviylik va ma’rifiylik asarga ijod prinsipi nuqtayi nazaridan ma’no bo‘ladi. Agar muayyan bir asar nazarda tutilsa, unda mavzu ham ma’noga kiradi. Asarning barcha adabiy vositalari, til va uslubi asarning suratini tashkil qiladi. Agar asarning biror jumlesi yoki baytini oladigan bo‘lsak, unda fikr ma’no, jumla yoki bayt tuzilishi suratdir. Agar bir so‘zni oladigan bo‘lsak, unda so‘zning tovush tomoni, masalan, “oy” degandagi “o” va “y” tovushlarining qo‘shib talaffuz qilgandagi eshitilishi surat, bu so‘zning osmondagi oyni, istiora tarzida ishlataliganda esa, go‘zalni anglatishi uning ma’nosidir. Ikkinci holda uning birinchi ma’nosi ham suratga aylanishi mumkin. Mohir san’atkor ma’noni o‘ziga mos va turli-tuman suratlarda jilvalantiradi va har bir surat zaminidagi ma’noni ravshanlashtiradi⁴”. Demak, lingvopoetika bir qarashda ma’no va surat munosabati, uning mezonlaridan babs qiluvchi fan tarmog‘i sifatida namoyon bo‘ladi. E’tiborlisi ayni ma’no va surat masalasi xususida ayrim mulohazalarni Hofiz Xorazmiy she’riyatida ham uchratamiz. Masalan,

Erur ul shoh voloqadr ham *ma’no-yu suratda*,

Kim aning qaddina kelsa, libosi faqr bas zebo. (10-g‘.)

Shoir ushbu baytda tazod va tanosub orqali ma’no va surat tengligini asllik, mumtozlik, umriboqiylik kabi fazilatlar belgisi sifatida talqin qiladi.

Shoir boshqa bir she’rida surat va ma’noda teng inson uchun jon fido qilishga tayyor ekanini izhor qiladi, bunday odam ma’nan shoh bo‘lishini e’tirof etadi:

Suratu ma’no birla, ey sulton,

Shohsan Hofiz eshicingda gado. (56-g‘.)

Bunda shoir o‘z fikrini inson shuuriga kuchli ta’sir qiluvchi lisoniy vositalar: antonimlar (*survat* – *ma’no*; *shoh* – *gado*) va sinonimlar (*sulton*, *shoh*) orqali zuhurga keltiradiki, badiiyat nuqtayi nazaridan tazod, tanosub, mutarodifning go‘zal namunasi yuzaga chiqadi.

Shoir ijodida surat va ma’no ziddiyatiga oid yana qator misollar mavjud. Lekin mumtoz nazmiy matnda surat va ma’no munosabati sof lingvistik masala ekanini Hofiz Xorazmiy she’riyati misolida ochish uchun uning ayni sodda, bir qarashda murakkab badiiy

⁴ Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. –Тошкенем: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1979. –Б. 22.



2-TOM, 5-SON

san'atlar uncha ko'zga tashlanmaydigan bir g'azalini tanladik. G'azal radifi ("Gadosi")ning o'zi uning lingvopoetik jihatdan muhim tomoni – xalqona ohang va ifodalar tinglovchi shuuriga o'zgacha ta'sir qilishini namoyon qiladi. Xalqimizda ... shaydosi (...ning *gadosi*) birikmasi kimning kimdir yoki nimagadir o'ta muhtoj ekaniligi bilan birga o'sha ehtiyoj anglab bo'lmas darajada samimiyat va sidqqa asoslanganini ko'rsatadi: *bola yaxshi gap gadosi* kabi. G'azaldan ham dastlab ana sho'u hisni tuyamiz:

Erurman jon bila jonon gadosi,
Zihn qulkim, erur sulton gadosi.

Baytda *jon* va *jonon* so'zлari o'zakdoshligi bilan birga ularning sintaktik jihatdan o'ta topqirlik bilan ulangani tahsinga loyiq. Chunki *jon bilan* bitishuvli birikma shaklan boshqaruv holatida ohangda o'ziga xoslik yuzaga keltirgan: "*jon bila* – *jon-u* dildan *jonon gadosiman*". *Jon* va *jononning* poetik timsol sifatida talqini xususida e'tiborli fikrlar bildirilgani⁵ bois ularni takrorlashga ehtiyoj yo'q, albatta. Ikkinci misrada tamsil orqali o'z sultonining gadosi, ya'ni sodiq insoni bo'lgan qul qanday baxtli, degan fikr poetik jihatdan go'zal ifoda bershi bilan birga hamma zamonlar uchun muhim ma'rifiy-falsafiy va ijtimoiy-siyosiy g'oyani ilgari suradi.

Gadosiman o'shul jonu jahonning
Agarchi dun erur dunon gadosi.

Baytning har ikkala misrasida tavze' hosil qilgan so'zlar (*jonu jahon; dun dunon*) ishtirok etishi bilan birga ularning qismlari bir-biriga mutavozin (bir xil o'lchamli) ekani uning ma'nosiga chiroylig surat bera olgan. Bugungi o'quvchiga notanish bo'lgan dun so'zi haqir, muflis; danon xushxirom, ya'ni go'zal qomatli ma'nosini bildiradi.

Qilalim tark bu non do'stlarni,
Ko'ngul birla chu bo'lduk jon gadosi.

Baytda bir-biri bilan qarama-qarshilik kasb etishi mumkin bo'limgan ikki so'z: *non* va *jon* o'zaro muvaqqat antonimligidan tazod yaratilmoqda. Aslida bu yerda non va jon so'zlarining do'st so'zi valentligi o'zaro ziddiyatni keltirib chiqaradi. *Non do'st* – kishidan yetadigan manfaat uchun do'st sanaluvchi, o'zini do'stlar qatorida ko'rsatuvchi ishonchhsiz do'st; *jon do'st* – birovdan yetadigan manfaat va ziyonni mezon qilmagan, o'zini do'st ko'rsatishga ham moyilligi yo'q sodiq do'st. Hofizning bu baytlari zamirida Mavlono Jaloliddin Rumiynig do'stlar tasnifi borasidagi quydidagi zarbulmasal baytlari ta'siri ham seziladi, nazarimizda:

Dilo, yoron sen qisman ar bidoniy,
Zaboniyyanu nonyandu jonyi.

⁵ Комилов Н. Жон ва жоно мажароси // Алишер Навоий. Фазаллар. Шарҳлар. – Тошкент: Камалак, 1991.



2-TOM, 5-SON

Ba noniy non bideh, az dar bironash,
Muhabbat kun ba yoroni zaboniy.
Va lekin yori joniyo nigah dor,
Ba poyash jon bideh to metavoniy⁶.

ya’ni “ey ko‘ngil, do‘stlar uch toifa bo‘ladilar: til do‘stlari, non do‘stlari va jon do‘stlari. Non do‘stiga non beru tark et, til do‘stlari xushmuaolama bo‘l. Lekin jon do‘stlarini g‘animat bilib, qila olsang oyoqlari ostiga joningni tashla!”

Jamolu husnina hayron bo‘lubman,
Maningtak qani bir hayron gadosi?!

Baytda *hayron* so‘zining ikki marta qo‘llanishi lisoniy tomondan takror fikrning muhimliga ishora sanalishini bildirsa, badiiy ifoda sifatida hayronlik haqiqiy holatini anglatishga ham xizmat qilgan. Bu holatni (garchi Hofiz Xorazmiy ijodidan bexabar bo‘lsa ham) Alisher Navoiy ijodida ham kuzatamiz:

Ul parivashkim, bo‘lubmen zoru sargardon anga,
Ishqidin olam manga *hayronu* men *hayron* anga⁷.

Keyingi baytda surat va ma’no mutanosibligining yana bir namunasini juda kamyob ifoda orqali yuza keltirilgan mubolag‘ada ko‘ramiz, ya’ni oshiq mahbuba rashkini (birgina rashkni) bayon qilish uchun qancha-qancha daftaru qancha-qancha devon bitishi lozim:

O‘shul rashki pariy vasfin temantin,
Bo‘lubman daftaru devon gadosi.

Ikkinci, tomondan shoir *rashki pariy* birikmasi orqali sintaktik omonimiyanı yuza keltiradi: bu daftaru devon pariy (mahbuba)ning oshiqni qizg‘anishi vasfi uchun yoki oshiqning pariy (mahbuba)ni qizg‘anishi vasfi uchun. Har ikkala holat bayt mazmuniga munosib bo‘lib, *rashki pariy* (aynan: pariyning rashki) tasodifan yuzaga kelgan ifoda emasligi ko‘rinib turibdi. Lingvistik nuqtayi nazardan sintaktik omonimiya badiiyatda iyhomni yuzaga keltiradi.

Nechakim, zulfi birla yuzi bo‘lg‘ay,
Bo‘laman kufr ila iymon gadosi.

Baytni ilk o‘qishimiz bilan unda bir antonimlik va ikki ziddiyat juftligini ko‘ramiz: kufr va iymon antonimik juftlikni, *zulf va yuz* hamda *kufra – iymon* yuzaga keltirgan. Shu bilan birga ikki mutanosiblik juftligi: *zulf va kufra* hamda *yuz va iymon* yuzaga kelgan. Shu tariqa bu baytda ham surat va ma’no mutanosibligi saqlanib qolgan. Nasriy bayonga aytantirganda «zulfi bilan yuzi bor ekan, men kufr va iymon gadosi bo‘lib qolaverman»

⁶ <https://www.salamatomehr.com/articles/article/571>

⁷ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 45.



2-TOM, 5-SON

ko‘rinishdagi ushbu baytning botini – ma’nosining mushohadasi zohiri – suratiga nisbatan qiyinroq kechadi. E.E.Bertels tasavvuf istilohlarini sharhlashda birinchi birinchilardan bo‘lib zulf va yuz istilohlariga e’tibor qaratgani⁸ ham beziz emas, nazarimizda. Olim “yuz ... chin haqiqatga, ya’ni, tarkibiy bo‘lmagan, yaxlit, mutlaq, ruhga, zulf bo‘lsa— haqiqiy qimmatga ega bo‘lmagan, xayolot aralash tajalliyot (jilvalanishlar)ga to‘g‘ri kelishini” qayd etadi. Shu bilan birga “Yana zulfga kelsak, u jingalak, egri-bugri, egrilik-to‘g‘rilikning ziddi, inkori, demak, zulf mohiyati bo‘yicha ikki xil tushunchani – to‘g‘rilik va uni inkori – egrilikni o‘zida mujassam qilgan. Olami vohidiyyatda qarama-qarshilik bo‘lishi mumkin emas, u erda hamma narsa bir bo‘lib qo‘shilgan, u erda “nihoya” “avvaliga” teng, “zohiriy” “botiniy”ga teng. Tushunchalarning namoyon bo‘lishi uchun esa, aksincha, sifat (atribut)larning qarama-qarshi qismlarga bo‘linishi zarurati bor. Binobarin, bu sifatlarning go‘yo bir ishorasi tarzida Ollohning tashqi belgisi hisoblangan nomlari paydo bo‘ladi. Natijada bir-biriga butunlay qarama-qarshi tasavvurlar paydo bo‘ladi, jumladan, muzill (yo‘ldan ozdiruvchi) va hodiyl (to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi), zohir (ochiq ravshan), botin (sirli, yashirin) kabi. Bunday yondashuv zulfning egri-bugriligini eslatish orqali ifodalanadi. “Zulf egriligi – nomiy va sifatiy qarama-qarshiliklarning namoyon bo‘lishidir”, – deydi Lohijiy”⁹.

Shahanshoh-i zamona bo‘lg‘ay erdi,
Dame bo‘lsa anga mehmon gadosi.

Mahbubning dargohi ulug‘ligini anglatish uchun shoir nihoyatda aniq ifoda topib bilgan, ya’ni gadosi uning bir lahza mehmoni bo‘lsa, zamona shohlarining shohi bo‘ladi. Bu badiiy barkamollik *gado* – *shahanshoh* so‘zlarining zidligi, mehmon so‘zi bilan dami (bir dam) so‘zlarining uyg‘unlashishi, zamona va mehmon so‘zlaridagi ohang mosligi kabi lisoniy vositalar orqali yuzaga chiqmoqdaki, bularning barcha ma’no va surat butunligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Maqtada esa
Zaburi ishq Hofiztak o‘qig‘an,
Qani bu davrda xushxon gadosi?!

Baytdagi Zaburi ishq – ishq Zaburi birikmasi kam kishi bilgan sir ma’nosini ifodalamoqda. Chunki Dovud alayhissalomga nozil qilingan bu kitob shoir yashagan davrda

⁸ Бертельс Е.Э. Заметки по поэтической терминологии персидских суфиев. И. Локон и лицо// Язык и литература. I, Л., 1926, – С. 361 – 386.

⁹ Бертельс Е.Э. Зулф ва юз. Рус тилидан Урфон Отажонов ва Алимулла Ҳабибуллаевлар таржимаси // Жаҳон адабиёти. 2005 йил, 2-сон. – Б. 147-148.



2-TOM, 5-SON

ham insoniyat qo‘lida yo‘q. Badiiyatda talmeh yuza kelishida shoirning lisoniy vosita sifatida biblionimga yangicha ma’no yuklay olganida ko‘rinadi.

Hofiz Xorazmiy she’riyatidan olingan ushbu misollar orqali ham mumtoz poetikada surat va ma’no tushunchalari alohida kategoriyani tashkil qilganini ko‘ramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 45.
 2. – Б. 19.
 3. Юлдашев М. М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри дисс ... – Тошкент, 2009.
 4. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. –Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. –Б. 22.
 5. Юлдашев М. М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри дисс ... – Тошкент, 2009.
 6. <https://www.salamatomehr.com/articles/article/571>
 7. Бертельс Е.Э.
- Заметки по поэтической терминологии персидских суфииев. И. Локон и лицо// Язык и литература. I, Л., 1926, – С. 361 – 386.
8. Бертельс Е.Э. Зулф ва юз. Рус тилидан Урфон Отажонов ва Алимулла Ҳабибуллаевлар таржимаси // Жаҳон адабиёти. 2005 йил, 2-сон.
 9. Комилов Н. Жон ва жоно мажароси // Алишер Навоий. Ғазаллар. Шарҳлар. – Тошкент: Камалак, 1991.
 10. Юлдашев М. М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри дисс ... – Тошкент, 2009.

